

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NAFIS TUYG'ULAR SOHIBI.**

Nasriddinova Sevara Olimjon qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlanǵich ta'lism yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi*

Boymatova Munisa Shokir qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlanǵich ta'lism yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi*

Sattorova Shohsanam Muzaffar

*qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlanǵich ta'lism yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi*

Rashidova Maftuna Ravshanovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlanǵich ta'lism yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi*

Naimova Mehrangez Nazarovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlanǵich ta'lism yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi*

Nu'monova Diyoraxon Dilshodbek qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Maktabgacha Ta'lism yo'nalishi 3guruh 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Boburiylar sultanatining asoschisi, tarixchi, davlat arbobi, ulug' sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida bilimlarga ega bo'lish. Shoir san'atining o'ziga xosligi, adabiy uslubi va mahorati, turkiy tilning ifodaliroq vositalari orqali tasvirlanganligi.*

**Kalit so'zi:** *davlat arbobi, shoh, shoir, ulug' sarkarda, g'azal, tuyuq, qit'a, fard, masnaviy, vafo, jafo, jazo.*

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tavallud topgan. Amir Temuring beshinchini avlodni, Farg'ona hukmdori Umarshayxning farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur otasining bevaqt o'limidan so'ng 12 yoshida taxtga chiqadi. 1497-yilda Bobur Samarcandni egallaydi, biroq, Bobur o'z yaqinlarining xiyonati tufayli Samarcandni yuz kun deganda tashlab chiqib ketadi. U Andijonga qaytadi, ammo, Xo'jandga yetganida shahar xiyonatchilar qo'liga o'tib ketganligi ma'lum bo'ladi. U shaharni qaytarib olish uchun qilgan harakatlari natija bermaydi. Buyuk sarkarda ikki yuzdan ortiqroq qo'shin bilan Samarcand yaqinidagi qishloqlardan birida qishni o'tkazadi. Ko'klam kelishi

bilan esa u yana harakatlarni boshlab yuboradi, ammo, barcha harakatlar besamar ketadi. Ikki yillik sargardonlikdan so'ng Bobur ota shahriga qaytada. 1500-yilda Oysha Sultonbegim Xo'jandga keladi va Bobur uni o'z nikohiga oladi. Aynan shu davrlardan boshlab buyuk shoir she'rlar mashq qila boshlaydi. Uning ilk she'rlari forsiyda yozilgan edi. Boburning barcha urinishlari foyda bermaganidan so'ng 1503-yilda Qobul va G'aznani jangsiz oladi. Qobuldag'i dastlabki yillar juda og'ir kechadi va u o'zini xon emas balki shoh deb e'lon qiladi. 1526-yilda buyuk sarkarda o'zining cheksiz zehni, aql-u zakovati va mahorati bilan Hindistonne ham bosib oladi. Boburiylar imperiyasi asoschisi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etadi. Lekin, vasiyatiga muvofiq keyinchalik uning hoki Qobulga ko'chiriladi. Lirik shoirning merosi 1519-yilda yozilgan "Qobul devoni" ga , 1528-1529-yillarda yozilgan "Hind devoni" ga jamlangandir. Shoirning to'liq devon tuzgani haqida ma'lumotlar yetarlicha bor. Ma'lumotlarga qaraganda, "Qobul devoni" hozirgacha topilmagan. She'rlarining umumiyligi 400 dan ortadi. Shundan 119 tasi g'azal , 231 tasi ruboiy va tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda yaratilgan. She'rlarini mavzu jihatidan oshiqona , ta'limiy, tasavvufiy , hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Bobur she'riyati intellektual qalb izhori sifatida arqoqlidir. Uning asarlari samimiyligi, ravon, usluban tugal va mukammaldir . Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida dunyoga olib chiqqan ulug' shoir hisoblanadi. Boburning butun dunyoga mashhur bo'lgan asari "Boburnoma" bo'lib, uni xalq orasida "Vaqoe" deb ham nomlaydilar . Buyuk memorial asarda 1494-1529-yillari Markaziy va Kichik Osiyoda, Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarida kechgan voqealar bayon etilgan. U sharq nasriy janrlarida 10 dan ziyod she'rlar yozgan. She'rlarida uning shaxsiy hayoti, atrof-muhiti va tarixiy hodisalar aks ettirilgan. Bobur she'riyatining asosini ishqiy-nasriy mazmundagi she'rlar tashkil etadi. Shoir san'ati o'ziga xos adabiy uslub va mahorat, turkiy tilning ifodaliroq vositalari orqali tasvirlanadi.Uning she'rlarida o'z davrining tarixiy hodisalari, shoirning shaxsiy hayoti, atrof-muhiti, insonga bo'lgan munosabat, din, davr an'analari va axloqlari voqe'lik bilan aks etgan. Boburning she'rlari — shoirning tarjimai xoli, desak mubolag'a bo'lmaydi. U orqali ijodkor shoirona til orqali teran tuyg'ularni bayon qiladi, hayotiy hodisalar to'qnashuvi natijasida hosil bo'lgan tashvishlarni mohirona so'zlaydi. Bobur she'riyatining asosini ishqiy-nasriy she'rlar tashkil etadi. Ijodining asosiy qirralaridan biri, chinakam insoniy, dunyoviy, haqiqiy sevgini kuylaganligidir. Shoir lirikasi Alisher Navoiy she'riyatidan ilhomlanish bilan to'yingan. O'zining g'azal va ruboiylarida u sevgi, do'stlik, go'zallikka intilish kabi insoniy muammolarni ko'targan. Dunyoviy sevgini shoir insonning eng porloq unvoni sifatida tarannum etadi. Bobur uchun sevgi — sadoqat,

fidokorlik, shukur va insoniylikdir. Sevgini u barcha narsadan: boylik, jamiyatdagi o'rni va barcha dunyoviy e兹guliklardan ustun qo'yadi. Shoir o'zining mukammal g'azallarida go'zal oshiq timsolini yaratib, unga tengsiz go'zal ta'shqisi ko'rinish, boy ichki dunyo, ma'naviy mukammallik in'om etadi. Shu bilan birga, u noyob badiiy vositalarni ham mohirona qo'llaydi. Bobur she'riyatida ona vatan mavzusi alohida o'rin egallaydi. Uning she'rlarida, ayniqsa to'rtliklari vataniga bo'lgan sog'inch va cheksiz muhabbatni ta'sirchan ifodalangan. Boburning fikricha, xudbinlik, hurmattalablik, qizg'ananchig'lik, manmanlik - noqobil sifatlardir. Shoir odamlarga samimiy maslahatlar beradi. O'zining ruboiyalarida inson qanday qilib o'zini ma'nani tarbiyalashi kerakligi haqida gapiradi. Mazkur mavzuga yuzlanar ekan, insonning hayotdagi eng asosiy vazifasini shoir yaxshilik, bag'rikenglik va haqiqatda ko'radi. Do'stlik - insonning eng asosiy jihatni va dushman bilan kurashda ulkan kuch deb hisoblaydi.

Har kimki, vafo qilsa - vafo topqusidur!

Har kimki, jafo qilsa - jafo topqusidur!

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik xargiz,

Har kimki, yomon bo'lsa - jazo topqusidur!

Ushbu g'azalda ham buyuk shoir insonlarni vafodor bo'lsagina o'zgalardan ham vafo topishini, kim jafokor bo'lsa, o'zga insonlardan ham jafo chekishini, yaxshilar yomomlik ko'rmasligini, yomonlar esa jazoga mutbalo bo'lishini aks ettirgan. Shoir o'z g'azal va ruboiyalar bilan barchani tarbiyali bo'lishga chaqiradi. Ulug' sarkarda, fan arbobi, tarixshunos, mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida gapiradigan bo'lsak, juda ham ko'p ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "O'zbek adabiyoti tarixi" 5 tomlik. 3-tom. T.:1980.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". 2007-yil.
3. I.Hoshimov. "Hindistonda boburiylar sulolasi sultanati". 1996-yil.